XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 23-avgust VI-84-104-5-78-K/24 Zarafshon shahar

Zarafshon shahrining ma’muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi"ning 3- va 4-bandlari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar kengashi

QAROR QILADI:

1. Zarafshon shahrining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha doimiy ishlovchi komissiyasi yig‘ilishining 2024-yil 30-iyuldagi 2-raqamli bayoni ma’qullansin.

2. Zarafshon shahrining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha doimiy ishlovchi komissiyasi tomonidan taqdim etilgan:

Zarafshon shahrining Tomdi tumani bilan ma’muriy-hududiy birliklar chegarasining tavsifi l-ilovaga va kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qaror xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashiga yuborilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A.Shoxmirzayevga hamda xalq deputatlari shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Gaffurov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RAXMANOV
NAZIRBEK
ISRAILOVICH

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2024-yil 23-avgustdagi
VI-84-104-5-78-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Navoiy viloyati Zarafshon shahrining chegara
TAVSIFI

O‘zbekiston Respublikasi, Navoiy viloyati Tomdi tumani Zarafshon shahrining chegara chizig‘i, tashlandiq temir yo‘l va dala tuproq yo‘li kesishmasi bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 41°36’11,125”, sharqiy uzoqlik koordinatalari 64°11’26,624”)*.

1-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1236 metr masofada 4R-57 avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 686 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°35’39,627”, sharqiy uzoqlik 64°12’34,760”)*

2-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 653 metr masofani o‘tib quruq soy bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°35’52,511”, sharqiy uzoqlik 64°12’52,423”)*

3-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo‘ylab janub tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 572 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin quruq soy bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 713 metr, janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 977 metr masofani o‘tib quruq soy bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°35’07,212”, sharqiy uzoqlik 64°14’03,842”)*

4-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo‘ylab g‘arbiy tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 966 metr masofada temir yo‘lini kesib o‘tib, janubiy yo‘nalishda 1561 metr masofani o‘tib quruq soy bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°33’46,774”, sharqiy uzoqlik 64°14’08,732”)*

5-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo‘ylab shimoliy tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2632 metr masofani o‘tib quruq soy bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°33’30,298”, sharqiy uzoqlik 64°12’19,165”)*

6-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 730 metr masofada A-379 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°33’06,632”, sharqiy uzoqlik 64°12’19,900”)*

7-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali A-379 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib janubiy yo‘nalishda 526 metr masofani o‘tib, 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°32’49,575”, sharqiy uzoqlik 64°12’20,432”)*

8-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 1664 metr masofani o‘tib, 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°32’48,303”, sharqiy uzoqlik 64°11’08,669”)*

9-nuqtadan quruq chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda 648 metr masofada joylashgan devor burchagiga tutashib, keyin devor bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 296 metr masofani o‘tib, devor burchagida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°33’18,882”, sharqiy uzoqlik 64°11’08,442”)*

10-nuqtadan chegara chizig‘i devor burchagida dala tuproq yo‘lining janub tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 605

metr masofani o‘tib, keyin avtomobil yo‘lining janub tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 253 metr masofani o‘tib, so‘ng avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik (shimoliy kenglik 41°33’32,544”, sharqiy uzoqlik 64°10’36,470”)*

11-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘li bo‘yidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 54 metr masofada joylashgan devor burchagiga tutashib, keyin devor bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 311 metr masofadan so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 95 metr masofada ichki avtomobil yo‘lining bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°33’26,12”, sharqiy uzoqlik 64°10’18,587”)*

12-nuqtadan chegara chizig‘i ichki avtomobil yo‘lining janub tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1016 metr masofada keyin ichki avtomobil yolining tugashi, shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 395 metr masofada temir yo‘lini kesib o‘tib, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 85 metr masofani o‘tib, so‘ng ichki avtomobil yo‘lining janub tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 277 metr masofadan so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 382 metr masofani o‘tib, yuqori kuchlanish elektr tarmog‘i ustunida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°34’12,653”, sharqiy uzoqlik 64°09’17,803”)*

13-nuqtadan chegara chizig‘i yuqori kuchlanish elektr tarmog‘i ustunidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1345 metr masofada keyin ichki avtomobil yo‘lining shimol tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 332 masofani o‘tib, so‘ng ichki avtomobil yoli va avtomobil yo‘lining kesishmasida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°34’51,227”, sharqiy uzoqlik 64°10’08,583”)*

14-nuqtadan chegara chizig’i avtomobil yo‘lining shimol tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 107 metr masofani o‘tib, keyin quruq ariq bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 678 metr masofadan, so‘ng quruq ariqlar kesishmasida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°35’11,456”, sharqiy uzoqlik 64°09’48,771”)*

15-nuqtadan chegara chizig‘i quruq ariq bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 210 metr masofani o‘tib, keyin dala tuproq yo‘lining g‘arbiy tomonidan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 233 metr masofani o‘tib, so‘ng dala tuproq yo‘lining shimol tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 153 metr masofani o‘tib, so‘ng dala tuproq yo‘lining g‘arbiy tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 125 metr masofani o‘tib, so‘ng dala tuproq yo‘lining kesib o‘tib, quruq ariq bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 197 metr masofani o‘tib, keyin dala tuproq yo‘lining g‘arb tomonidan yo‘lining barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 214 metr masofadan so‘ngira dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°35’22,933”, sharqiy uzoqlik 64°10’10,864”)*

16-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 827 metr masofani o‘tib, keyin dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°35’44,023”, sharqiy uzoqlik 64°10’26,886”)*

17-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo’lining shimol tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 501 metr masofani o‘tib, keyin avtomobil yo‘lini kesib o‘tib yo‘lining janub tomonidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 517 metr masofani o‘tib, A-379 avtomobil yo‘lini kesib o’tib, A-379 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°35’46,430”, sharqiy uzoqlik 64°10’58,301”)*


18-nuqtadan chegara chizig‘i A-379 avtomobil yo‘lining shimol tomonidan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 141 metr masofani o‘tib, keyin tashlandiq temir yo‘l ko‘prigidan tashlandiq temir yo’li bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1084 metr masofani o‘tib, so‘ng tashlandiq temir yo‘li va dala tuproq yo‘li kesishmasi bo‘yida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°36’11,125”, sharqiy uzoqlik 64°11’26,624”)*

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2024-yil 23-avgustdagi
VI-84-104-5-78-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Navoiy viloyati Zarafshon shahrining chegara

CHIZMASI

Xalq deputatlari Zarafshon
shahar kengashining
2024 yil "___"_____dagi
_____- sonli qaroriga 2-ilova



Shartli belgilar

Zarafshon shahrining chegarasi va yer maydoni

1 *Zarafshon shahri chegarasining burilish nuqtasi va raqami*